



XUSUSIY SEKTORNI QO'LLAB-QUVVATLASHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING AHAMIYATI

¹ *Mahmudova Odinabonu*, ² *Umarova G.G.*

^{1,2} *Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, ¹ magistrant, ² Professor*

Annotatsiya: Bu maqolada soliq imtiyozlarining xususiy sektorni rivojlantirish va uni qo'llabquvvatlashda iqtisodiy ahamiyati yoritib beriladi. Soliq imtiyozlari tufayli tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy yukini yengillashtirish, investitsiya muhitini rag'batlantirish va yangi ish o'rinlarini kengaytirish imkoniyatlari yoritib beriladi. Bundan tashqari, soliq tizimining keng imkoniyatlaridan foydalanish iqtisodiy o'sishga ta'siri va ularni samarali qo'llash masalalari tahlil qilinadi. Bu natijalar orqali shuni bilishimiz mumkinki, puxta ishlab chiqilgan soliq imtiyozlari xususiy sektor faolligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Kalit so'zlar: xususiy sektor, soliq imtiyozlari, tadbirkorlik subyektlari, investitsiyalar, iqtisodiy rivojlanish, moliyaviy savodxonlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается экономическая значимость налоговых льгот в развитии и поддержке частного сектора. Раскрываются возможности снижения финансовой нагрузки на субъекты предпринимательства, стимулирования инвестиционного климата и расширения создания новых рабочих мест за счёт налоговых льгот. Кроме того, анализируется влияние использования широких возможностей налоговой системы на экономический рост, а также вопросы их эффективного применения. Полученные результаты показывают, что грамотно разработанные налоговые льготы являются важным инструментом повышения активности частного сектора.

Ключевые слова: частный сектор: налоговые льготы, субъекты предпринимательства, инвестиции, экономическое развитие, финансовая грамотность.

Abstract: This article examines the economic significance of tax incentives in the development and support of the private sector. It highlights the opportunities created by tax incentives to reduce the financial burden on business entities, stimulate the investment climate, and expand the creation of new jobs. In addition, the article analyzes the impact of utilizing the broad potential of the tax system on economic growth, as well as issues related to the effective implementation of tax incentives. The findings indicate that well-designed tax incentives are an important instrument for increasing private sector activity.

Keywords: private sector tax incentives, business entities, investments, economic development, financial literacy.

Kirish

Bugungi bozor iqtisodiyoti holatida xususiy sektor - iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Xususiy tadbirkorlik ishlab





chiqarish samaradorligini oshirish, raqobat muhitini tashkillashda va aholi bandligini ta'minlashda yetakchilik qiladi. Shu sababli, davlat tomonidan xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Davlatning xususiy sektorni rag'batlantirishdagi asosiy instrumentlaridan biri bu soliq siyosati, ayniqsa soliq imtiyozlaridir. Soliq imtiyozlari tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy yengillik ishlab chiqaribgina qolmay, ularning faoliyatini takomillashtiradi hamda investitsion faolligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashda soliq imtiyozlarining o'рни va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Xususiy sektor iqtisodiyotda tovar va xizmatlar ishlab chiqarishning asosiy qismini ishlab chiqarishdan tashqari, yalpi ichki mahsulot shakllanishida muhim ulush hosil qiladi. Xususiy ishlab chiqaruvchi tashkilotlar innovatsiyalarni joriy etishga moyil bo'lib, bozor talablariga tez moslasha olishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham xususiy sektorni rivojlantirish mamlakat iqtisodiy barqarorligining yetakchi vositasidir. Soliq imtiyozlari - bu soliq to'lovchilar uchun qonunchilik asosida taqdim etiladigan yengilliklar bo'lib, ular soliq stavkalarini pasaytirish, soliqdan vaqtincha ozod qilish yoki soliq to'lovini kechiktirish shaklida ko'rinadi. Xususiy sektor uchun qo'llaniladigan asosiy soliq imtiyozlariga pastda birnecha namunalar keltiriladi:

- a) foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar;
- b) qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha yengilliklar;
- c) yangi tashkil etilgan korxonalar uchun soliq ta'tili;
- d) investitsiya loyihalari uchun maxsus soliq rejimlari.

Yuqoridagi imtiyoz turlari tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga ta'minlaydi. Soliq imtiyozlari xususiy sektor faoliyatiga bir nechta yo'nalishlarda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Birinchi navbatda, soliq yukining pasayishi muassasalarining ixtiyorida ko'proq mablag' ta'minlaydi. Bu esa ishlab chiqarishni rivojlantirish va texnologik yangilanishlar uchun imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, soliq rag'batlari chet ellik va mahalliy investitsiyalarni jalb etishda asosiy turtqi bo'ladi. Tadbirkorlik faoliyatining kengayishi orqali yangi ish o'rinlari ochilishiga va aholi daromadlarining oshishiga ham xizmat qiladi. Ammo soliq imtiyozlarini qo'llashda ularning maqsadli va samarali bo'lishi kerak. Asossiz yoki haddan tashqari imtiyozlar davlat byudjeti yetarli darajada zarar yetkazish mumkin. Birinchidan, soliq imtiyozlari orqali soliq yukining kamaytirilishi xususiy korxonalar ixtiyorida ko'proq moliyaviy resurslar qolishini ta'minlaydi. Bu esa korxonalarga o'z faoliyatini kengaytirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash imkonini beradi. Soliq to'lovlari kamaygan sharoitda tadbirkorlar tejab qolingan mablag'larni zamonaviy texnologiyalar joriy etish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va mahsulot sifatini yaxshilashga yo'naltirishi mumkin. Natijada ishlab chiqarish samaradorligi oshadi va raqobatbardosh mahsulotlar ulushi ko'payadi. Shuningdek, soliq imtiyozlari investitsiya muhitini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Qulay soliq sharoitlari mahalliy va xorijiy investorlar uchun jozibador muhit yaratadi.





Investorlar, avvalo, soliq stavkalari past bo'lgan, barqaror va shaffof soliq tizimiga ega davlatlarga kapital kiritishga intiladilar. Shu sababli soliq rag'batlari yangi investitsiya loyihalarining amalga oshirilishiga turtki bo'lib, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarning jadal rivojlanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, soliq imtiyozlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Kichik korxonalar odatda moliyaviy resurslar cheklangan sharoitda faoliyat yuritadi. Soliq yengilliklari ularning bozorga kirib kelishini osonlashtiradi, dastlabki xarajatlarni kamaytiradi va barqaror faoliyat yuritishiga yordam beradi. Natijada iqtisodiyotda sog'lom raqobat muhiti shakllanadi va monopoliyalarning oldi olinadi. Soliq imtiyozlarining yana bir muhim ijobiy jihati - bandlik darajasining oshishidir. Xususiy sektor faoliyatining kengayishi yangi ish o'rinlari yaratilishiga olib keladi. Bu esa aholi bandligini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Yangi ish o'rinlari ochilishi natijasida aholi daromadlari oshadi, bu esa o'z navbatida ichki talabning ko'payishiga va iqtisodiy o'sishning jadallashishiga olib keladi. Bundan tashqari, soliq imtiyozlari eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Eksport qiluvchi korxonalarga beriladigan soliq yengilliklari ularning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshiradi. Valyuta tushumlarining ko'payishi mamlakat to'lov balansini mustahkamlashga va milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish kerarki, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashda soliq imtiyozlari asosiy iqtisodiy instrument sifatida namoyon bo'ladi. soliq imtiyozlari xususiy sektor faoliyatiga ko'p qirrali ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular ishlab chiqarishni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish, bandlikni oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ular tadbirkorlik muhitini yaxshilash, investitsiya faolligini oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yordam beradi. Lekin soliq imtiyozlari samaradorligini ta'minlash uchun ularni maqsadli, vaqtinchalik va iqtisodiy asoslangan holda qo'llash maqsadli bo'ladi. Aks holda, davlat byudjeti barqarorligiga bu orqali salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli soliq siyosatini takomillashtirish jarayonida xususiy sektor manfaatlari bilan davlat moliyaviy barqarorligi o'rtasidagi muvozanatni saqlash qolishni ta'minlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mankiw N.G. Principles of Economics. - Cengage Learning, 2020;
2. Stiglitz J.E. Economics of the Public Sector. - W.W. Norton & Company, 2019;
3. Todaro M., Smith S. Economic Development. - Pearson Education, 2021;
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi materiallari;
5. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.

